Аннотация. В данной статье проанализированы международно-правовые основы запрета принудительного труда, международные стандарты, принятые в данной сфере, а также вопросы их имплементации в национальное законодательство. В частности, раскрыто значение Конвенции Международной организации труда № 29 «О принудительном или обязательном труде» 1930 года, Конвенции № 105 «Об упразднении принудительного труда» 1957 года, а также международных документов в области прав человека. Кроме того, с правовой точки зрения исследованы реформы, реализованные в Республике Узбекистан в сфере противодействия принудительному труду, процессы либерализации трудовых отношений, обеспечения трудовых прав граждан и совершенствования национальных механизмов в соответствии с международными стандартами. В статье научно и практически обоснованы причины возникновения принудительного труда, его социально-экономические последствия, а также эффективные правовые механизмы его предупреждения и искоренения. Наряду с этим разработаны научные предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию национального законодательства.

Ключевые слова: принудительный труд, трудовое право, международные стандарты, права человека, Международная организация труда, трудовая эксплуатация, международное право, имплементация

PROHIBITION OF FORCED LABOUR: INTERNATIONAL STANDARDS AND NATIONAL LEGISLATION

Abdullaeva Dilfuza Saidazimovna,
Associate Professor of the Department of International Law
and Human Rights,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the international legal framework for the prohibition of forced labor, international standards adopted in this area, and their implementation in national legislation. In particular, the importance of Convention No. 29 of 1930 "On Forced Labor" Convention No. 105 of 1957 "On the Abolition of Forced Labor" adopted by the International Labor Organization, as well as international human rights instruments, is highlighted. Also, the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan in the field of combating forced labor, the liberalization of labor relations, ensuring the labor rights of citizens, and improving national mechanisms in accordance with international standards are analyzed from a legal perspective. The article provides a scientific, theoretical and practical justification of the causes of forced labor, its socio-economic consequences, and effective legal mechanisms for its elimination. At the same time, scientific proposals and recommendations for further improvement of national legislation are developed.

Keywords: forced labor, labor law, international standards, human rights, international labor organization, labor exploitation, international law, implementation

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ayniqsa mehnat sohasida inson qadr-qimmatini himoya qilish masalasi xalqaro hamjamiyatning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, majburiy mehnatni taqiqlash va uning barcha shakllariga qarshi samarali kurashish xalqaro mehnat huquqining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Majburiy mehnat insonning erkin mehnat qilish huquqini cheklaydi, uni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qaram holatga soladi hamda inson sha'ni va qadr-qimmatiga jiddiy putur yetkazadi. Shu sababli mazkur masala nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar ahamiyatga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning mehnat qilish huquqi, erkin kasb tanlash va majburiy mehnatdan himoyalani sh huquqi mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 42-moddasiga ko'ra har kim munosib mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega hamda qonunda belgilangan tartibdan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi (Republic of Uzbekistan, 2023a).

Mazkur norma insonning mehnat sohasidagi erkinligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, xalqaro mehnat standartlari bilan uyg'un hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyada bolalar mehnatidan foydalanishning taqiqlanishi ham inson huquqlarini himoya qilishning muhim elementi sifatida nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida majburiy mehnatni taqiqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Kodeksda majburiy mehnat jazo tahdidi ostida, shaxsning ixtiyorisiz va muayyan majburlash vositalari orqali bajariladigan mehnat sifatida baholanadi (Republic of Uzbekistan, 2023b).

Xalqaro miqyosda majburiy mehnatga qarshi kurashishda Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, XMTning 1930-yilda qabul qilingan "Majburiy mehnat to'g'risida"gi 29-son hamda 1957-yilgi "Majburiy mehnatni bekor qilish to'g'risida"gi 105-son konvensiyalari mazkur sohadagi asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu konvensiyalar davlatlarga majburiy mehnatning har qanday ko'rinishini bartaraf etish, insonning erkin mehnat qilish huquqini ta'minlash va mehnat munosabatlarida adolat prinsiplarini qaror toptirish bo'yicha majburiyatlar yuklaydi. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari

umumjahon deklaratsiyasi, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risida”gi hamda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risida”gi xalqaro paktlarda ham majburiy mehnatni taqiqlashga oid muhim qoidalar mustahkamlangan.

So’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasida ham majburiy mehnatga qarshi kurashish, mehnat munosabatlarini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatda paxta yig’im-terimi jarayonlarida majburiy mehnat holatlarini bartaraf etish, mehnat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish, xodimlarning mehnat huquqlarini sud orqali himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksini qabul qilish orqali mazkur sohada muhim huquqiy asoslar yaratildi. Bu esa O’zbekistonning xalqaro mehnat standartlariga sodiqligini va inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati izchil ravishda amalga oshirilayotganini ko’rsatadi.

Shu bilan birga, amaliyotda majburiy mehnatning yashirin shakllari, ayrim sohalarda mehnat munosabatlarining norasmiy tus olishi, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi kabi muammolar mavjud bo’lib qolmoqda. Bu esa mazkur mavzuda ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Asosiy qism

Har bir shaxs o’zining iste’mol xarajatlari hamda oilaviy to’lovlari mavjudligi sababdan ham ishlashiga to’g’ri keladi. Shuning uchun mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish har doim dolzarb masala bo’lib qoladi. Mehnat sharoitlarini yaxshilash bilangina cheklanmay, ish beruvchi hamda xodimlarning huquqlari ham himoya qilinishi lozim. Mehnat huquqlarini munosib ravishda himoyalash iqtisodiy rivojlanish bilan parallel ravishda o’sib bormoqda. Chunki mehnat sharoitlari nafaqat ish soati va ishga munosib haq to’lash, balki erkin ishlash huquqini ham ta’minlashi lozim. Afsuski, globallashuv jarayonida majburiy mehnat shakllari saqlanib qolmoqda.

Jumladan, tadqiqotchi D. Richardsonning fikricha, mehnatning majburiy shaklda tashkillashtirilishiga qarshi kurash XVIII asrdan buyon amalga oshirilayotgan jarayon hisoblanadi (Richardson, 1998). Haqiqatan ham, majburiy mehnatga qarshi kurashish asrlar davomida keng qamrovli masala bo’lib keladi. Ammo majburiy mehnatning hozirda butun dunyo bo’ylab tarqalishi va hali hamon yo’qolmayotgani achinarli holat. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan konvensiyalar qabul qilinganligi va davlatlar ratifikatsiya qilib, o’z qonunchiligida implementatsiya qilishiga qaramay, majburiy mehnat qurbonlari statistika sonida sekinlik bilan o’zgarishlar sodir bo’lmoqda. Majburiy mehnat inson huquqlari buzilishining eng xavfli ko’rinishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining statistik ma’lumotlariga ko’ra, dunyo miqyosida 50 millionga yaqin inson qullik bo’yicha jabr chekadi (International Labour Organization et al., 2022). Ular ichidan yigirma 8 million aholi aynan majburiy mehnat bilan shug’ullanishga duch kelmoqda. Shu sababdan ham mazkur masala barcha davlatlar uchun global muammolardan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasida ham majburiy mehnatga qarshi turli qonun hujjatlari qabul qilinib, mazkur holatda jazo choralari joriy etilgan. Ammo davlatimiz rivojlanayotgan davlatlar orasida ekan, xalqaro standartlar hamda milliy qonunchilikka implementatsiya jarayonidagi bo’shliqlar, xalqaro standartlarga mos kelmaslik hamda amaliyotda ko’zga tashlanadigan holatlar ilmiy o’rganishni taqozo qiladi.

Germaniyalik olim B. Andrisning fikriga ko’ra, juda ko’p holatlarda mehnat qonunchiligi bilan insonlarning uyida xo’jalik ishlarida yordamlashuvchi uy xizmatchilarining mehnati tartibga solinmasligi mumkin (Andrees, 2008). Aslini olganda, majburiy mehnatning og’ir ko’rinishlari aynan mana shunday uylarda xizmat ko’rsatayotgan xodimlarga nisbatan sodir etiladi. Darhaqiqat, uy xizmatchilari bilan uy egasi mehnat shartnomasi tuzib xizmat ko’rsatishlari O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solingan. Lekin amaliyotda juda ko’p holatlarda mehnat shartnomasi tuzilmay uy xizmatchisi tayinlanadi va ish hech qanday xat-hujjatsiz amalga oshiriladi. Afsuski, aynan mana shunday vaziyatlarda majburiy mehnat sodir bo’lish ehtimoli mavjud va uy xizmatchilari buni keyinchalik sezib, yordam so’rashda ham xavotirlanib qoladi.

Xalqaro mehnat huquqi sohasida yirik olimlardan biri bo'lgan N. Valtikos xalqaro mehnat standartlarini inson qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan universal huquqiy mexanizm sifatida baholaydi. Uning fikricha, majburiy mehnatni taqiqlash insonning erkin mehnat qilish huquqining ajralmas qismi bo'lib, davlatlar mazkur prinsipni nafaqat normativ jihatdan, balki amaliy mexanizmlar orqali ham ta'minlashi lozim (Valticos, 2004).

N. Valtikos tomonidan bildirilgan mazkur fikr xalqaro mehnat huquqining insonparvarlik mohiyatini juda aniq ifodalaydi. Mening fikrimcha, olimning yondashuvi zamonaviy mehnat huquqining asosiy g'oyalardan biri inson qadr-qimmatini himoya qilish prinsipiga to'liq mos keladi.

Avvalo, Valtikos xalqaro mehnat standartlarini "universal huquqiy mexanizm" sifatida baholash orqali mehnat huquqini faqat iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi soha emas, balki inson huquqlarini ta'minlash vositasi sifatida talqin qiladi. Bu juda muhim yondashuvdir. Chunki mehnat munosabatlarida insonning huquq va erkinliklari ta'minlanmas ekan, iqtisodiy taraqqiyotning o'zi ijtimoiy adolatni kafolatlay olmaydi.

Olimning majburiy mehnatni taqiqlashni insonning erkin mehnat qilish huquqining ajralmas qismi sifatida baholashi ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslidir. Chunki insonning mehnat qilish yoki qilmaslikni erkin tanlash huquqi uning shaxsiy erkinligi, qadr-qimmatini va huquqiy maqomi bilan chambarchas bog'liq. Agar shaxs muayyan bosim, qo'rqitish yoki iqtisodiy qaramlik tufayli mehnat qilishga majbur bo'lsa, bu holat inson huquqlarining buzilishiga olib keladi.

Fikrimizcha, olimning eng muhim fikrlaridan biri davlatlar majburiy mehnatga qarshi kurashishni faqat normativ darajada emas, balki amaliy mexanizmlar orqali ham ta'minlashi lozimligi haqidagi qarashidir. Bu juda dolzarb masala hisoblanadi. Sababi, ayrim davlatlarda xalqaro konvensiyalar ratifikatsiya qilingan bo'lsa-da, amaliyotda mehnat nazoratining sustligi, korrupsiya, norasmiy bandlikning yuqoriligi, aholining huquqiy ongi pastligi hamda mehnat migrantlarining himoyasizligi kabi omillar majburiy mehnatning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Valtikosning fikrlarini quyidagi jihatlarga ko'ra ahamiyatli deb hisoblaymiz. Xususan:

- majburiy mehnatga qarshi kurashish inson huquqlarini ta'minlashning bir qismi hisoblanadi;
- xalqaro mehnat standartlari davlatlar uchun umume'tirof etilgan huquqiy mezon vazifasini bajaradi;
- konvensiyalarni qabul qilishning o'zi yetarli emas, ularni samarali amalga oshirish mexanizmi ham bo'lishi kerak;
- davlatning asosiy vazifasi insonning munosib va erkin mehnat qilish huquqini kafolatlashdan iborat.

Bu fikrlar ayniqsa bugungi globallashuv, mehnat migratsiyasi va norasmiy mehnat bozori kengayib borayotgan sharoitda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham olimning qarashlari zamonaviy mehnat huquqi fanining muhim nazariy asoslaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Professor G. Standing o'z tadqiqotlarida globallashuv sharoitida mehnat bozorida norasmiy bandlik, migratsiya va iqtisodiy qaramlik majburiy mehnatning yangi shakllarini yuzaga keltirayotganini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, davlatlar faqat jinoiy jazo choralari bilan cheklanmasdan, munosib mehnat (*decent work*) konsepsiyasini rivojlantirishi zarur (Standing, 2011).

I. Kiselyov mehnat huquqida erkin mehnat prinsipini konstitutsiyaviy huquq sifatida baholaydi. Uning fikricha, har qanday iqtisodiy yoki ma'muriy bosim orqali shaxsni mehnat qilishga majburlash inson huquqlarining buzilishi hisoblanadi (Kiselev, 1999).

G. Standing hamda I. Kiselyov tomonidan bildirilgan fikrlar zamonaviy mehnat huquqining eng dolzarb muammolarini ochib beradi va ular bugungi global mehnat munosabatlari sharoitida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, G. Standing tomonidan ilgari surilgan yondashuv majburiy mehnatni faqat an'anaviy shakllarda emas, balki zamonaviy iqtisodiy munosabatlar doirasida ham baholash zarurligini ko'rsatadi. Chunki hozirgi globallashuv jarayonlarida majburiy mehnat ko'p hollarda ochiq zo'ravonlik

orqali emas, balki iqtisodiy qaramlik, ishsizlik xavfi, migratsion nochorlik, qarzdorlik va ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi orqali namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, mehnat migrantlari, norasmiy sektorda ishlovchilar va vaqtinchalik mehnat munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslar "yashirin majburiy mehnat" xavfiga ko'proq duch kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, olimning "decent work" munosib mehnat konsepsiyasiga tayanishi juda asosli hisoblanadi. Zero, munosib mehnat erkin tanlangan mehnat, xavfsiz ish sharoiti, adolatli ish haqi, ijtimoiy himoya va kasaba uyushmalari erkinligi kabi elementlarni o'z ichiga qamrab oladi. Agar davlat faqat jazolash mexanizmiga tayansa, majburiy mehnatning sabablari emas, balki uning oqibatlari bilan kurashgan bo'ladi. Shuning uchun ham majburiy mehnatga qarshi samarali kurashishda ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

I. Kiselyovning erkin mehnat prinsipini konstitutsiyaviy huquq sifatida baholashiga kelsak, mazkur yondashuv inson huquqlari konsepsiyasiga to'liq mos keladi. Fikrimizcha, erkin mehnat qilish huquqi insonning shaxsiy erkinligi va qadr-qimmatini bilan bevosita bog'liq bo'lgan fundamental huquq hisoblanadi. Chunki inson mehnat faoliyatini o'z xohishi va manfaatlaridan kelib chiqqan holda tanlashi lozim.

Olimning "iqtisodiy yoki ma'muriy bosim ham majburlash shakli bo'lishi mumkin" degan fikri ayniqsa muhimdir. Sababi, amaliyotda majburiy mehnat har doim ham jismoniy majburlash orqali namoyon bo'lmaydi. Masalan ishdan bo'shatish tahdidi, hujjatlarni olib qo'yish, maoshni ushlab qolish, ijtimoiy yordamdan mahrum qilish va mansab vakolatidan foydalanib bosim o'tkazish kabi holatlar ham insonni o'z irodasiga qarshi mehnat qilishga majbur qilishi mumkin.

Shu bois majburiy mehnatni taqiqlash masalasida zamonaviy huquqiy yondashuv faqat "jismoniy majburlash" bilan cheklanmasligi, balki insonning iqtisodiy erkinligi va munosib mehnat qilish huquqini ta'minlash bilan ham uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda amalga oshirilayotgan mehnat islohotlari, ayniqsa yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi, XMT konvensiyalarining implementatsiya qilinishi va paxta yig'im-terimida majburiy mehnatga qarshi tizimli choralar aynan mazkur ilmiy qarashlarning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shveysariyalik olimlar M. Kern, K. Sottasning (2003) fikricha, majburiy mehnat holatida shaxsning ixtiyoriga qarshi xizmatlarning taklif etilganligi va bajarilmasa, jazo chorasining mavjudligi turli holatlar hisoblansa-da, lekin mana shu ishlarning bajarilmasligi oqibatida vujudga keladigan xavfli jazodan qo'rquv sababli ishlaganlik holatlarida bir-biriga tutash ehtimoli mavjud. Haqiqatan ham, mehnat munosabatlari tuzilish jarayonida ishchining roziligi mavjud bo'lsa-da, uning rozi bo'lishi ixtiyoriymi yoki biror tazyiq ostidami aniqlash lozim va juda ko'p vaziyatlarda qo'rquv sababli majburiy mehnat qurboniga aylanishadi. Bundan tashqari, ba'zida roziligi bilan ishga kirgan ishchi vaqti kelib ishdan bo'shamoqchi bo'lsa-da, bosim sababli majburan ishda qoladi. Shunday vaziyatlarda, qonunning kvalifikatsiya jarayoni diqqat bilan amalga oshirilishi talab etiladi.

Shuningdek, M. Kern hamda K. Sottaslarning ta'riflashicha, agar davlat qonunchiligida xodimni ishdan bo'shatish to'g'risida oldindan ogohlantirish muddatining mavjudligi majburiy mehnatga xos bo'lgan holat emas. Aslini olganda, mana shunday ogohlantirish muddatining berilishida ishchiga nisbatan ta'sir o'tkazish oson. Chunki uning bosim ostida bo'lganligini isbotlash qiyin holat.

B. Andrisning fikriga ko'ra, agar ish beruvchi xodimga vazifa taklif qilganda xodim o'z ixtiyoriga ko'ra rozilik bergan bo'lsa, bunday ixtiyoriylik mehnat munosabatlarning butun davomiyligida saqlanib qolishi lozim. Ammo bu rozilik mehnat munosabatlarini bekor qilish jarayonida saqlanib qolmasa, ixtiyoriylik va rozilik bo'yicha gap-so'z bo'lishi ham mumkin emas (Andrees, 2008). Aslini olganda ham shunday. Ixtiyoriylikning davomiy saqlab qolinishi ishlayotgan xodim uchun erkin mehnat qilish va har qanday bosimlardan holi ekanligi yuzasidan kafolat bo'ladi.

Majburiy mehnat bilan shug'ullanish holatlarining oldini olish borasida juda ko'p konvensiyalar va xalqaro standartlar mavjud. Mehnat sohasida asosiy huquq va prinsiplarni belgilab beruvchi deklaratsiyaga muvofiq prinsiplar mavjud bo'lib, ulardan biri majburiy va zo'raki mehnatning uchrashi mumkin bo'lgan har qanday holatlariga va shakllariga chek qo'yishdan iborat. Holat yuzasidan Xalqaro

Mehnat Tashkilotining bir qancha konvensiya va bayonnomalari mavjud. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham mazkur hujjatlar ratifikatsiya qilinib, implementatsiya qilingan.

Majburiy mehnat davlat oldidagi harbiy burchlari va fuqarolik burchlarini ado etishda yoki sud qarori bilan jazoni o'tash yuzasidan ishga jalb etilganda bajariluvchi ishdir. Bu ikki tushunchaning farqlanishiga keladigan bo'lsak, tarjimada "forced labour" va "compulsory labour" tushunchalari qo'llaniladi (Mahamatov & Rasulov, 2024). Konvensiyaning 25-moddasiga ko'ra, zo'raki yoki majburiy mehnatga undash yuzasidan jinoiy javobgarlik miqyosida jazo choralari qo'llash hamda sanksiyalarning chinakam samaradorligini va ularga qat'iy amal qilinishini o'z mas'uliyat doirasiga olishi shart.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, majburiy mehnat faqat jismoniy majburlash ko'rinishida emas, balki iqtisodiy qaramlik, ma'muriy bosim, norasmiy bandlik va mehnat migratsiyasi bilan bog'liq holatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois mazkur muammoga qarshi kurashishda faqat huquqiy javobgarlik choralari bilan cheklanib qolmasdan, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda keyingi yillarda mehnat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, majburiy mehnatga qarshi institutsional mexanizmlarning takomillashtirilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanmoqda. Biroq globallasuv va mehnat bozoridagi yangi tendensiyalar mazkur sohada doimiy ravishda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirib borishni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, majburiy mehnatni bartaraf etish davlat, jamiyat va xalqaro tashkilotlarning o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuvni talab etadigan muhim huquqiy va ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

Xulosa

O'zbekistonda keyingi yillarda mehnat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi, xalqaro mehnat standartlarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi hamda paxta yig'im-terimida majburiy mehnatga qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlar mazkur sohada sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlagani kuzatildi.

Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, norasmiy bandlik, mehnat migratsiyasi, aholining huquqiy ongi yetarli emasligi va mehnat nazorati mexanizmlarining ayrim holatlarda samarasizligi majburiy mehnat xavfini saqlab qolmoqda. Shu bois mazkur sohada huquqiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida "majburiy mehnat" tushunchasini Xalqaro Mehnat Tashkilotining 29-sonli konvensiyasi normalariga to'liq muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mehnat inspeksiyasi faoliyatini raqamlashtirish va uning mustaqilligini kuchaytirish orqali majburiy mehnat holatlarini aniqlash samaradorligini oshirish lozim. Bundan tashqari, norasmiy mehnat munosabatlarini qisqartirish maqsadida ish beruvchilar uchun elektron mehnat shartnomalarini majburiy tartibda joriy qilish mexanizmlarini kengaytirish hamda mehnat migrantlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida ularni huquqiy axborot bilan ta'minlash va bepul yuridik yordam tizimini rivojlantirish talab etiladi.

REFERENCES

Andrees, B. (2008). *Forced labour and human trafficking: A handbook for labour inspectors*. International Labour Office. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_norm/---declaration/documents/publication/wcms_097835.pdf

International Labour Organization. (1930). *Forced Labour Convention, 1930 (No. 29)*. <https://www.ilo.org>

International Labour Organization. (1957). *Abolition of Forced Labour Convention, 1957 (No. 105)*. <https://www.ilo.org>

International Labour Organization. (1998). *Declaration on Fundamental Principles and Rights at Work*. <https://www.ilo.org>

- International Labour Organization, Walk Free, & International Organization for Migration. (2022). Global estimates of modern slavery: Forced labour and forced marriage. <https://doi.org/10.54394/CHUI5986>
- Kern, M., & Sottas, C. (2003). The abolition of forced or compulsory labour. In *Fundamental rights at work and international labour standards*. International Labour Office. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_norm/---normes/documents/publication/wcms_087424.pdf
- Kiselev, I. Ya. (1999). *Sravnitelnoye i mezhdunarodnoe trudovoe pravo [Comparative and international labour law]*. Delo.
- Liebel, M. (2004). *Working children as social subjects: The contribution of working children's organizations to social transformations*. Zed Books.
- Mahamatov, M., & Rasulov, J. (2024). *Xalqaro mehnat huquqi [International labour law]*. TSUL Publ.
- Republic of Uzbekistan. (2023a, April 30). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6445145>
- Republic of Uzbekistan. (2023b). *Labour Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6257288>
- Richardson, D. (1998). *Slave trade: Volume of trade*. In S. Drescher & S. L. Engerman (Eds.), *A historical guide to world slavery* (p. 385). Oxford University Press.
- Standing, G. (2011). *The precariat: The new dangerous class*. Bloomsbury Academic.
- Sweepston, L. (1998). Human rights law and freedom of association: Development through ILO supervision. *International Labour Review*, 137(2), 169–194.
- Valticos, N. (2004). *Les normes internationales du travail: Un patrimoine pour l'avenir [International labour standards: A legacy for the future]*. International Labor Office. <https://www.ilo.org/international-labour-standards/publications-international-labour-standards>

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.